

OZBEKISTON — AQSH: IKKI TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-noyabr kuni Vashington shahriga amaliy tashrifi doirasida Oq uyda Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Donald J. Trump
@realDonaldTrump

I am thrilled to announce an incredible Trade and Economic Deal between the United States and Uzbekistan. Over the next three years, Uzbekistan will be purchasing and investing almost \$35 Billion Dollars and, in the next 10 years, over \$100 Billion Dollars, in key American Sectors, including Critical Minerals, Aviation, Automotive Parts, Infrastructure, Agriculture, Energy & Chemicals, Information Technology, and others. I want to thank Uzbekistan's Highly Respected President, Shavkat Mirziyoyev. We look forward to a long and productive relationship between our Countries!

1.55k ReTruths 6.23k Likes 11/7/25, 7:26 AM

AQSH Prezidenti Donald Tramp “Truth Social” ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida quyidagi postni yozib qoldirdi:

“Amerika Qo‘shma Shtatlari va O‘zbekiston o‘rtasidagi misli ko‘rilmagan savdo-iqtisodiy kelishuvni e‘lon qilishdan mamnunman. Yaqin uch yil ichida O‘zbekiston Amerikaning muhim minerallar, aviatsiya, avtomobil butlovchi qismlari, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, energetika va kimyo, axborot texnologiyalari va boshqa muhim tarmoqlariga qariyb 35 milliard dollar, kelgusi o‘n yilda esa 100 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritadi va xaridlarni amalga oshiradi. Men O‘zbekistonning yuksak hurmatli Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildiraman. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi uzoq muddatli va samarali munosabatlarni intizorlik bilan kutamiz!”.

Prezidentimiz dastlab Oq uying Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi. So‘ng Oval xonada yetakchilar muzokara o‘tkazdilar. O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, siyosiy muloqotni

mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Joriy yil sentabr oyida Nyu-York shahrida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shu jumladan, “C5+1” formatida Markaziy Osiyo va AQSH o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish yuzasidan fikr almashildi. Davlatimiz rahbari Donald Trampni ichki va tashqi siyosatdagi yuksak muvaffaqiyatlari

bilan samimiy tabrikladi. Uning o‘tkir xalqaro va mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish borasida qo‘shayotgan shaxsiy hisssasi va sa‘y-harakatlari alohida qayd etildi. Donald Tramp shu kunlarda O‘zbekiston yetakchisi AQSH hukumati vakillari,

yirik kompaniyalari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan samarali uchrashuv va muzokaralar o‘tkazganini olqishladi. Yetakchilar qo‘shma loyihalarni ilgari surishning institutsional mexanizmlarini yaratish va takomillashtirish muhimligini ta’kidladilar.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari AQSH yetakchisini o‘zi uchun qulay muddatda O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishga taklif etdi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI “C5+1” FORMATIDAGI SAMMITDA MUHIM TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidentining rasmiy qarorgohi — Vashington shahridagi Oq uyda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitida ishtirok etdi.

Prezident Donald Tramp raisligida o‘tgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi. Davlatimiz rahbari AQSH yetakchisiga asos solinganidan buyon o‘tgan 10 yilda mintaqaviy savdo, transport va energetika aloqalarini rivojlantirishning samarali mexanizmiga aylangan “C5+1” formatidagi sammit tashkil etilgani uchun minnatdorlik bildirdi. Ushbu sammit Markaziy Osiyo va AQSH o‘rtasidagi strategik muloqotni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berishi ta’kidlandi. “C5+1” formati doirasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida davlatimiz rahbari qator tashabbuslarni ilgari surdi. Avvalo, ishtirokchi mamlakatlarda navbati bilan joylashtiriladigan doimiy faoliyat yuritadigan Kotibiyatni ta’sis etish taklif qilindi. Davlat idoralari, kompaniyalar va moliya institutlari o‘rtasida tizimli muloqotni ta’minlash maqsadida vazirlar darajasida Investitsiyalar va savdo bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish muhimligi qayd etildi. Shuningdek, “Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi” jamg‘armasini ishga tushirish dolzarb ekani ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi Markaziy Osiyoni Janubiy Kavkaz va Yevropa bilan bog‘laydigan yirik transport-kommunikatsiya va energetika loyihalarini amalga oshirishda AQSH bilan faol ishlashga tayyorligini bildirdi. Muhim minerallarni qidirish, qazib olish va chuqur qayta ishlash borasidagi sa‘y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirish, shuningdek, tayyor mahsulotlarni global yetkazib berish zanjirlariga kiritish uchun Maxsus qo‘mitani tuzish taklif qilindi. Mintaqa qishloq xo‘jaligini Amerika texnologiyalarini joriy etgan holda modernizatsiya qilish maqsadida Mintaqaviy agroteknologik innovatsiyalar sherikligini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Gumanitar aloqalarni mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Prezidenti AQSHning yetakchi muzeylarida Markaziy Osiyo mamlakatlarining madaniy merosiga bag‘ishlangan qo‘shma ko‘rgazmalarni tashkil etish taklifi bilan chiqdi. Davlatimiz rahbari navbatdagi sammitni Samarqand shahrida o‘tkazishni taklif qildi. Tadbirda boshqa yetakchilar ham so‘zga chiqdi. Sammit yakunida ko‘p tomonlama hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘ZARO HAMKORLIKNING YANGI YO‘NALISHLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 4-6-noyabr kuni amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari 6-noyabr kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammiti tadbirlari doirasida bir qator nufuzli delegatsiyalar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va yirik kompaniyalar yetakchilarini qabul qildi. AQSH Eksport-import banki rahbari Jon Yovanovich bilan uchrashuvda ushbu nufuzli institut bilan tayyorlangan qo‘shma dastur asosida energetika, muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, AT va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi yirik loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko‘rib chiqildi. Eksimbank hukumatning rasmiy eksport-kredit agentligi bo‘lib, AQSH kompaniyalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi hamda ularga sug‘urta, kafolat va kredit vositalarini taqdim etadi. Eksimbankning mamlakatimiz aviaparkini modernizatsiya qilish va “Boeing” samolyotlarini yetkazib berishdagi ishtirokiga alohida e‘tibor qaratildi. Amaliy hamkorlikni davom ettirish va Uzoq muddatli sheriklik rejasini ishlab chiqishga kelishib olindi. Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari huzurida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda AQSH Eksimbanki o‘rtasida imzolangan Qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish to‘g‘risidagi bitim almashildi. AQSH Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh direktori Ben Blek bilan uchrashuvda oliy darajadagi faol muloqotlar va savdo-investitsiyaviy hamkorlik kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Energetika, muhim minerallar, moliya, transport, qishloq xo‘jaligi va AT sohalarida yirik qo‘shma tashabbuslar ishlab chiqilmoqda. Amaliy sheriklikni chuqurlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi. Ustuvor loyihalarni moliyalashtirish uchun qo‘shma investitsiya platformasini yaratishni jadallashtirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, Toshkent shahrida korporatsiyaning mintaqaviy ofisini ochish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rib chiqildi. Davlatimiz rahbari korporatsiyaning infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda

davlat-xususiy sheriklik asosida ishtirok etishi muhimligini ta’kidladi. DFC — AQSHning milliy rivojlanish instituti bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma va sanoat loyihalarini amalga oshirish uchun xususiy kapitalni safarbar qilish bilan shug‘ullanadi. “General Motors International” kompaniyasining global ijrochi direktori Shilpan Amin bilan uchrashuvda ushbu korporatsiya bilan uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Kompaniyaning mamlakatimiz avtomobil sanoatini rivojlantirish va diversifikatsiya qilishdagi muhim o‘rni qayd etildi. So‘nggi 5 yil ichida kompaniya tomonidan 1,6 million dona avtomobil ishlab chiqarildi, O‘zbekiston “Chevrolet” brendi uchun AQSHdan keyin ikkinchi yirik bozorga hamda Markaziy Osiyo va MDH bozorlarida sotuvlar bo‘yicha yetakchiga aylandi. Ishlab chiqarish kooperatsiyasini yanada rivojlantirish, mahsulotlar turini kengaytirish va mahalliy lashtirishni chuqurlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Zamonaviy mashinasozlikda talab yuqori bo‘lgan yangi texnologiyalar va xomashyo resurslari sohasida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi. Amerika Qo‘shma Shtatlari savdo vaziri Xovard Latnik bilan uchrashuvda O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo va investitsiyaviy hamkorlikni faollashtirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Ko‘p qirrali O‘zbekiston — AQSH munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi 4 barobar ko‘payib, qariyb 1 milliard dollarga yetdi. O‘zbekistonda AQSHning 300 dan ortiq kompaniyasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda, sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika va innovatsiya sohalarida qator yirik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Davomi 2-betda

“YANGI O‘ZBEKISTON ORZUSI” — MAMLAKATIMIZDA KECHAYOTGAN IJOBIY EVRILISHLAR TARANNUMI

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist Salim Doniyorovning yangi kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Yangi O‘zbekiston orzusi! Bu shunchaki, orzu emas, u yillar davomida xalqimiz istagan, qalbining eng tubida asrab-avaylab kelgan ulkan maqsadi, intilishi, yaratuvchanlik kuchi. Muhimi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, katta maqsadlar sari boshlaydigan quvvat manbaidir. Prezidentimiz Yangi O‘zbekiston g‘oyasini ilgari surganida xalqimiz buni katta orzu-umidlilar bilan qarshi oldi. Bugun Qoraqalpog‘istonning eng olis ovulidan tortib, Toshkent shahrining markazigacha, go‘zal vohadan, so‘lim vodiyygacha bo‘lgan barcha hududda ana shu yangilanish, o‘sish va

o‘zgarish shukhi hukm suryapti. Quvonarlisi, bu yangilanishlar sabab xalqimiz hayotdan rozi bo‘lib yashay boshladi. Bor-yo‘g‘i 8-9 yil avval boshlangan islohotlarni bugun dunyo tan oldi. Bir qarashda mazkur o‘zgarishlarni bor bo‘y-basti bilan his etmasligimiz mumkin. Negaki insonda yangiliklarga tez ko‘nikish tuyg‘usi bor. Shu bois, u kechagi yangilanishlar emas ertangi marralar haqida ko‘proq o‘ylaydi. Ammo vaqti-vaqti bilan bosib o‘tilgan yo‘lni eslash, tahlil etish zarur.

Davomi 2-betda

O‘ZARO HAMKORLIKNING YANGI YO‘NALISHLARI

Boshlanishi 1-betda

Savdo aloqalarini mustahkamlash, hududlararo hamkorlikning samarali mexanizmlarini yaratish, shuningdek, Muvofiglashtiruvchi kengash ta’sis etishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani ta’kidlandi.

Qishloq xo’jaligi sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratildi. AQSHdan soya va paxta yetkazib berish, shuningdek, Amerikaning ilg’or tomchilatib sug’orish texnologiyalarini joriy etish bo’yicha dastlabki shartnomalar tuzilgan.

Muzokaralar yakunida qo’shma loyihalarni qo’llab-quvvatlash uchun investitsiya platformasini yaratish orqali amaliy hamkorlikni faollashtirishga kelishib olindi.

AQSHning yetakchi kompaniyalari, investitsiya fondlari va moliya institutlari vakillari bilan o’tkazilgan davra suhbatida AQSH savdo vaziri Xovard Latnik, Prezidentning maxsus yordamchisi Rikki Gil, Prezidentning maxsus vakili Paolo Zampolli, qishloq xo’jaligi vaziri o’rinbosari Stiven Vaden, shuningdek, Amerika — O’zbekiston savdo palatasi rahbarlari, “Traxys”, “FLSmith”, “McKinsey”, “Meta”, “Google”, “Amazon”, “Boeing”, “Air Products”, “Axiom Space”, “Cove Capital”, “Freeport-McMoRan”, “Orion CMC”, “Cargill Cotton”, “John Deere”, “Honeywell”, “Valmont Industries”, “Flowserve Corporation” kabi yirik korporatsiya va kompaniyalarning yuqori darajadagi menejerlari ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida O’zbekiston yetakchisi so’ngi 8 yil ichida AQSH bilan tovar ayiriboshlash hajmi 4 barobar oshgani, mamlakatimizda AQSHning 300 dan ortiq kompaniyasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini ta’kidladi.

Prezidentimiz hamkorlikning bugungi darajasi birgalikdagi ishlarga keng istiqbol o Chadigan yigir bosqichning boshlanishi ekanini alohida ta’kidladi. AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan bo’lajak uchrashuvda iqtisodiy hamkorlikning aniq yo’nalishlari va yangi qo’shma tashabbuslar muhokama qilinishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari o’z nutqida ikki mamlakat o’rtasidagi strategik sheriklikning ustuvor yo’nalishlarini ko’rsatib o’tdi.

2030-yilga borib O’zbekistonda 18-20 gigavattlik qayta tiklanuvchi quvvatlarga ega yangi energetika tizimi yaratiladi, elektr energiyasining yarmidan ko’pi quyosh va shamol energiyasi hisobidan ishlab chiqariladi.

Shu ma’noda, O’zbekiston va AQSH uran, mis, volfram, molibden va grafit qazib olish hamda chuqur qayta ishlashni rivojlantiradi. Ishonchli yetkazib berish zanjirlarini yaratish va AQSHning ilg’or qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgan.

O‘ZA

SIYOSAT

INSON QADRI BAXT INDEKSINING ILDIZI

Har yili nufuzli ta’lim dargohlaridan biri — Oksford universiteti tadqiqotchilari dunyo aholisining baxt indeksini e’lon qiladi. Mazkur “World Happiness Report 2025” hisobotiga ko’ra, O’zbekiston eng baxtli mamlakatlar orasida 53-o’rinni egalladi.

E’tirof

E’tirof

So’nggi yillarda O’zbekistonning xalqaro reytinglardagi mavqei tobora mustahkamlashi va dunyo miqyosida e’tirofga erishishi shunchaki voqea emas. Bu muvaffaqiyat mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida yuritilayotgan kuchli iqtisodiy-ijtimoiy siyosat hosilasidir.

Prezidentimiz “Kambag’allikdan farovonlik sari” mavzusidagi III xalqaro forumning ochilish marosimida alohida ta’kidlab: “Yangi O’zbekistonda barcha islohotlar “Inson qadri uchun” degan tamoyil asosida amalga oshirilmoqda. So’nggi sakkiz yilda odamlarning haq-huquqini himoya qilish, ularni munosib ish joyi bilan ta’minlash, daromadini oshirish, turmushini yaxshilashga qaratilgan ulkan ishlarni amalga oshirdik. Barcha sa’y-harakatlarimiz har bir inson, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar o’z salohiyatini to’liq namoyon etishi uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarni kengaytirishga qaratildi.

Eng murakkab davrda kambag’allikka qarshi kurashni davlat siyosati darajasiga olib chiqib, uni umummilliy harakatga aylantirdik. Ochiq aytish kerak, o’sha paytda bizda kambag’allik darajasini baholash bo’yicha aniq mezon va metodologiya yo’q edi. Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlari bilan hamkorlikda xalqaro tajriba asosida kambag’allikning milliy mezonlarini ishlab chiqdik”, deya alohida mazkur yo’nalishdagi keng ko’lamli islohotlarga ta’rif bergan edi.

Haqiqat shuki, tinchlik-totuvlik hukm surgan mamlakatda odamlar o’z uy-joyiga, tayinli ishi va yaxshi yashashi uchun yetarli maoshga ega bo’lsagina o’zini baxtli his etadi. Ertangi kuniga, farzandlari kelajagiga ishonch hosil qiladi, ko’ngli xotirjam tortadi. Hayotiga mazmun kiradi. Davlat va jamiyat miqyosidagi islohotlarga daxldorlik hissi paydo bo’ladi.

Kambag’allik tushunchasi yaqin-yaqin yillargacha rasmiy minbarlar tugul OAVlarda ham tilga olinmasdi. “Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam” jumlası sifatida kezi kelganda nomigagina qo’llanardi, xolos. Odamlar, ayniqsa, eng chekka hududlarda yashovchi aholi o’z muammolari bilan o’z holiga tashlab qo’yilgan edi. O’sha manzillarga borgan kishi xarobaga aylangan qishloqlar, abgor yo’llar hamda odamlardagi tushkunlik va beparvolikni ko’rib, dili siyoh bo’lardi. O’tgan yillarning achchiq xulosasi shuki, muammolarni tan olmaslik yoki ko’z yumish orqali hal qilib bo’lmaydi.

Mamlakatimizda kambag’allikni hal qilish, avvalo, uni davlat miqyosida, yuksak minbarda turib tan olishdan boshlandi. O’shanda yurtdoshlarimizdan 7,5 millioni yoki 23 foizining daromadi kambag’allik chegarasiga ham yetmasdi. Qat’iy maqsad va kuchli siyosiy iroda bilan boshlangan islohotlar tufayli o’tgan yillarda eng qiyin vaziyatga tushib qolgan 3,5 million odamni daromadli qilish orqali kambag’allik darajasi keskin pasaydi.

Jamiyatning eng quyi bo’g’inigacha tushib, “mahallabay” ishlash tizimi yo’lga qo’yilgani bugun o’zini har tomonlama oqlayotganiga barchamiz guvohmiz. Har bir xonadon, har bir oila bilan “mahalla yetilligi” tomonidan individual reja asosida ishlanib, daromadini oshirishga qaratilgan manzilli ishlar bajarildi.

Mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga turli manbalor orqali har yili 2,5-3 milliard dollar yo’naltirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy yordam miqdori eng kam iste’mol xarajatidan oz bo’lmagıli alohida belgilab qo’yilgani ham xalq manfaatları birinchi o’ringa qo’yilganining dalolatidir.

Izchil islohotlar tufayli 7,5 million kishi kambag’allikdan chiqarilib, 2024-yilda bu ko’rsatkich 8,9 foizga tushirildi. Bu yil yakunigacha kambag’allik darajasini 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. O’tgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 2 karra o’sgani bu jarayonda muhim omil bo’ldi. Joriy yil yakuni bo’yicha aholi jon boshiga daromad 3500 dollarga yetishi kutilmoqda. Bu raqamlarni xalqaro moliya tashkilotlari ham tan olgani milliy iqtisodiyotimiz jadal o’sayotganining yana bir e’tirofi.

Yangi tashabbus va tajribalar sinovdan o’tkazilib, dunyodagi ijobiy yutuqlar o’rganilib, kambag’allikni qisqartirish bo’yicha Yangi O’zbekiston modeli yaratildi. Avvalo, manzilli ijtimoiy daftarlar joriy etilib, barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olindi. Pandemiya davrida bepul dori-darmon, ijtimoiy nafaqalar uchun jami 8 milliard dollarlik mablag’ va imtiyozlar berildi. Natijada 5 million 200 ming kishining “kambag’allik qopqoni”ga tushib qolishi hamda iqtisodiy retsessiyaning oldi olindi.

Qishloq aholisini daromadli qilish uchun 235 ming gektar paxta va g’alla maydoni qisqartirilib, odamlarga 30-50 sotixdan yer ajratishning yangi mexanizmi joriy etildi. Bu ishlar 800 ming odamning daromadini oshirishda muhim qadam bo’ldi.

Kambag’allikni davlat miqyosida faqat pul tarqatish, nafaqa to’lash bilan hal qilib bo’lmaydi. Buning uchun oila a’zolarini o’qitish, kasbga o’rgatish va ish bilan ta’minlash muhim.

Ayni paytda “Kambag’allikdan farovonlik sari” davlat dasturi yurtimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Unda yetita imkoniyat va mas’uliyat tamoyili asosida muhim yo’nalishlarga yangi yondashuv belgilab berildi. Xususan, mazkur dasturda faol investitsiya siyosati yuritish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash va yangi ish o’rinlari ochish, kambag’al oila a’zolarini biror kasbga yo’naltirish, xotin-qizlarni jamiyatning faol a’zosiqa aylantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlama ko’mak berish, hududlarda, ayniqsa, chekka qishloqlarda infratuzilmani yaxshilash orqali odamlarning yaxshi yashashi uchun sharoit yaratish kabi jabhalor qamrab olingan.

Har bir kambag’al oilada, ayniqsa, xotin-qizlar orasida oliy ma’lumotlilar bo’lishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun ular fozisiz ta’lim kreditlari, grantlar va boshqa moliyaviy yordamlar orqali qo’llab-quvvatlanmoqda.

“Bundan buyon kambag’allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo’g’indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag’allikdan olib chiqish bo’lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so’rov ham qattiq bo’ladi”, deya ta’kidlagan edi davlatimiz rahbari.

Hozir har bir mahallaga biznes muhiti, har bir oilaga farovonlik kirib borganini odamlar o’z hayoti misolida his etmoqda. Bunday keng ko’lamli amaliy islohotlar tufayli O’zbekiston 2030-yilga qadar kambag’allikni ikki barobar qisqartirish bo’yicha o’z oldiga katta maqsad qo’ygan.

Faol investitsiya siyosati tufayli shu yilning o’zida 35 milliard dollarlik sarmoya evaziga 9000 dan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish o’rni ochilmoqda. Qulay ishbilarmonlik muhiti evaziga o’tgan sakkiz yilda 700 ming tadbirkor o’zining barqaror biznesiga ega bo’ldi.

Davlat biznes uchun sharoit yaratib beryapti, tadbirkorlar esa zimmasiga ijtimoiy mas’uliyat olib, ehtiyojmand aholining ishi va daromadli bo’lishiga ko’maklashmoqda. Mana shunday samarali hamkorlik tufayli joriy yilning o’zida 270 mingdan ziyod kambag’al oila a’zosi doimiy ishli bo’ldi.

Insonga umr bir marta beriladi. Har bir odam hayotda yaxshi yashashga haqli. Zero, munosib yashash sharoitini yaratish, bu borada kambag’allikni qisqartirish yangi O’zbekistondagi barcha islohotlar zamiridagi asosiy maqsaddir. Bu borada erishilayotgan natijalarning xalqaro reytinglarda ham alohida e’tiborga olinayotgani mamlakatimiz to’g’ri yo’lda ekanini tasdiqlamoqda.

Yunus BO’RONOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

Kitob taqdimoti

“YANGI O‘ZBEKISTON ORZUSI” – MAMLAKATIMIZDA KECHAYOTGAN IJOBIY EVRILISHLAR TARANNUMI

ijod qilishlari yo’lida zarur barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Ijodkor ziyolilar bugungi kunda o’z mas’uliyati, burchini teran his etib, Vatan ravnaqiga munosib hissa qo’shib kelmoqda. Ustoz jurnalist Salim Doniyorovning taqdimoti o’tkazilayotgan “Yangi O’zbekiston orzusi” kitobi ham tekzor, yangilanib borayotgan zamon talabiga javob beruvchi maqolalar, suhbatlar, tahliliy materiallarni o’zida jamlagani bilan diqqatga sazovor.

Yangi davr shukhi bilan tashkil etilgan “Yangi O’zbekiston” gazetasi qariyb olti yil

avval 2020-yil 25-yanvardan boshlab chop etila boshlagan edi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muassisligidagi gazeta milliy matbuotimizga o’ziga xos ovoz, yangi O’zbekiston ruhi bilan kirib keldi. Gazeta qisqa vaqtda davlat va jamoat arboblari, ziyolilar, keng jamoatchilik orasida katta obro’ qozondi.

Bu bejiz emas, “Yangi O’zbekiston” real hayotimizdagi yangilanishlar jarayoni, amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini oddiy odamlar hayoti misolida tahlil etib o’quvchilarga havola qilib kelmoqda. Ayni paytda gazetada davlat va



QR-KOD ORQALI
VIDEOGA O’TING!



“

“Yangi O’zbekiston orzusi”da yangi davrning ruhi, yangilanish jarayonlarining mazmun-mohiyati, xalq uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bevosita voqealar, misollar va tahliliy yondashuv orqali yorqin tasvirlangan. Shu jihatdan kitob yangi O’zbekiston qiyofasini, uning taraqqiyot strategiyasi va kelajakka intilishini anglashda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

jamoat arboblarning teran tahliliy fikrlari ham izchil berib borilmoqda.

“Yangi O’zbekiston orzusi” kitobidan muallifning ana shunday teran tahlil ila yozilgan maqolalari, davlat va jamoat arboblari bilan suhbatlari o’rin olgan. Shu jihatdan kitobni Yangi O’zbekiston orzusi sari yo’lga chiqqan katta karvonning o’ziga xos solnomasi deyish mumkin. Buni tadbirida so’z olganlar ham e’tirof etdi.

Kitob O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O’zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari aks etgan “Yangi O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” sarlavhali suhbat bilan boshlanadi.

Kitobni mutolaa qilar ekansiz, yangi O’zbekistonni barpo etish konsepsiyasi, Uchinchi Renessansni amalga oshirish g’oyasi, inson manfaati — eng oliy qadriyat ekani, ochiq, konstruktiv va pragmatik siyosat, davlat boshqaruvida fuqaro manfaatları ustuvorligi kabi o’zgarmas tamoyillari har bir mavzu, har bir suhbat orqali jonli misollarda namoyon bo’ladi.

Muallif yangilanishlarni nazariy asoslar bilan emas, balki hayotiy misollar, voqealar, oddiy odamlar tajribasi orqali tahlil qilishi kitobni o’quvchiga yanada yaqinlashtirgan.

Tadbir davomida Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri Nodir Jonuzoq, O’zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori, senator Abdusaid Ko’chimov, Toshkent davlat o’zbek

tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov, tarix fanlari doktori, professor Abduxalil Mavroluv, O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, professor Sherzodxon Qudratxo’ja, “Saodat” jumali bosh muharriri, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi Munavvara Usmonova so’zga chiqib, jurnalistning mehnati, odilona pozitsiyasi va faoliyatiga yuqori baho berdi.

— “Yangi O’zbekiston orzusi” har bir maktab, barcha mahallaga kirib borishi kerak. Negaki bu to’plam barchamiz uchun uslubiy qo’llanma, — dedi akademik Shuhrat Sirojiddinov. — Chunki yangi tariximiz haqida bunday tahliliy kitoblar kamyoib. Mazkur to’plam ana shu bo’shliqni o’z vaqtda to’ldirgan nashrlardan biri bo’ldi.

“Yangi O’zbekiston orzusi”da yangi davrning ruhi, yangilanish jarayonlarining mazmun-mohiyati, xalq uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bevosita voqealar, misollar va tahliliy yondashuv orqali yorqin tasvirlangan. Shu jihatdan kitob yangi O’zbekiston qiyofasini, uning taraqqiyot strategiyasi va kelajakka intilishini anglashda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Rashid XO’JAMOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

“Yangi O’zbekiston orzusi” kitobi bizga mamlakatimizning eng yangi tarixi haqida so’zlaydi. Bosib o’tilgan yo’lni tahlil etish imkonini berib, ko’zlangan marraning nechog’liq yaqin ekanidan dalolat beradi.

Kuni kecha O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasida “Yangi O’zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri, O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan jurnalist Salim Doniyorovning “Yangi O’zbekiston orzusi” nomli kitobi taqdimoti bo’lib o’tdi. Tadbirida davlat va jamoat arboblari, ziyolilar, professor-o’qituvchilar, talaba yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tadbirni O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O’zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ochib berdi.

— Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tanlab olgan yo’l Yangi O’zbekistonni katta va ulug’vor maqsadlar sari olib bormoqda, — dedi Sirojiddin Sayyid. — Mamlakatimiz qalam ahlining samarali

O‘ZBEKISTON – OLIY TA’LIMDA GLOBAL HAMJAMIYATNING TO‘LAQONLI A‘ZOSI



Qo'ng'iro'tboy SHARIPOV,
oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vaziri

Bu hujjat xalqaro ta'lim tizimidagi yangi bosqich bo'lishi barobarida mamlakatimizning jahon bilim hamjamiyatidagi munosib o'rnini yanada mustahkamlagan ramziy voqeadir. U orqali yurtimizdagi har bir yoshning orzusi, har bir pedagog, professor-o'qituvchining mehnati butun dunyo ta'lim maydonida o'z aksini topmoqda.

Konvensiya dunyo oliy ta'limiga keng yo'l ochadi

Konvensiya BMT tarixidagi oliy ta'lim sohasiga oid ilk global shartnoma. U barcha mamlakat uchun yagona va adolatlil tamoyillarni belgilaydi. Hujjat bilan dunyo miqyosidagi universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasida hamkorlik o'rnatiladi. Endi yurtimizda ta'lim olgan yoshlar jahondagi istalgan nufuzli oliygo'da o'qishni bema'lol davom ettira oladi.

O'zbekiston ushbu konvensiyaga qo'shilish orqali ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu qaror tufayli diplomlarimiz jahon miqyosida tan olinadi. Olimlarimiz va muhandislarimiz, o'qituvchilarimiz va tadqiqotchilarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi. Mazkur voqea mustaqil O'zbekiston tarixida ta'lim sohasi uchun yangi davmi boshlab berdi.

Samarqand — ilm va ma'rifat ko'prigi

Bugun Samarqand ilmu ma'rifat madaniyatining yuragi sifatida dunyo diqqati markazida. Aynan shu qutlug' zaminda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi bo'lib o'tayotgan bir paytda Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi mamlakatimiz, qolaversa, butun mintaqadagi ta'lim tizimining xalqaro integratsiyasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi.

Samarqand asrlar davomida Sharq va G'arb ilm-fani, adabiyoti va ta'limi o'rtasida tabiiy

Bugun jahon ilm-fani va ta'limi misli ko'rilmagan sur'at bilan rivojlanmoqda. Dunyoda bilim eng katta qiymatga aylangan, tajriba va malaka nazariyani amaliyot bilan bog'lashning eng ishonchli ko'prigi bo'lib xizmat qilayotgan bir davrda O'zbekistonning UNESCO Oliy ta'limiga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyasini qabul qilishi millat taraqqiyoti yo'lidagi ulkan tarixiy va yuksak ma'naviy qadamdir.

ko'priki vazifasini o'tab kelgan. Ko'hna kent madrasalari va ilmiy markazlarida ulg'aygan Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy kabi allomalar boy merosi bilan dunyo ma'naviyati va ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Bu shaharga Hazrat Alisher Navoiy ham ilmiy istab kelgan. Abdurrahmon Jomiy bilan do'stlik rishtalarini bog'lagan. Imom Buxoriy, Abu Mansur Moturiyiy hazratlarining ham aynan shu zaminini so'nggi manzil qilganida juda katta hiqmat bor.

Mirzo Ulug'bek rasadxonasida yaratilgan "Zij-i jadidi Ko'ragoniy" jamlanmasidagi aniq astronomik hisoblar, tropik yil davomiyligini o'ta yuksak anqlikda ifodalash amaliyoti bugun ham xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etiladi.

Samarqandning mana shu ilmiy-ma'rifiy ruhi ta'lim va fan sohasidagi adolat, ochiqchilik va ishonch tamoyillarini mustahkamlaydigan xalqaro huquqiy hujjat bo'lish global konvensiyaga chuqur ma'no bag'ishladi. Aynan shu hujjat xorijda olingan diplom va malakalarni adolatlil, shaffof, kamsitishsiz, ishonchli tartibda tan olishni ta'minlaydi. Milliy axborot markazlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, masofaviy ta'lim va innovatsion o'qitish usullarini qo'llab-quvvatlaydi.

Ta'lim islohotlarining mantiqiy davomi

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi izchil islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Global konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi ana shu keng ko'lami yangilanishlarning mantiqiy va tabiiy davomidir. Bu hujjat oliy ta'lim tizimini xalqaro huquqiy makon bilan chambarchas bog'lab, milliy malakalarning dunyo miqyosida tan olinishiga keng yo'l ochadi. Uning qabul qilinishi nafaqat huquqiy akt, balki mamlakatimizning bilim, ilm-fanga strategik munosabatining yana bir yorqin ifodasidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi ilgari kuzatilmagan yuksak darajada rivojlandi. 2015-yilda atigi 69 ta oliygo'h faoliyat yuritgan bo'lsa, bugun ularning soni 204 taga yetdi. Bu — raqamlar ortidagi haqiqiy taraqqiyot, ya'ni bilim olish imkoniyati kengayishi, ilmiy salohiyat yuksalishi va jahon tajribasiga yaqinlashishining amaliy natijasidir.

Qamrov, sifat va raqobat bir vaqtning o'zida o'smoqda. Buni xalqaro reytinglar ham tasdiqlaydi: "THE Impact Rankings 2025" natijalariga ko'ra, O'zbekistonning 12 ta universiteti dunyodagi eng nufuzli 1000 ta oliygo'h qatoriga kirdi. Bu bilim sohasidagi milliy islohotlar samarasi va ilmiy salohiyatning xalqaro e'tirofidir.

Bunday natijalar, shubhasiz, Prezidentimiz rahbarligida yuritilayotgan ochiq va pragmatik siyosat mevasidir. Binobarin, davlatimiz rahbari ta'lim sohasini taraqqiyotning asosiy ustuni sifatida belgilab berdi. Shu siyosat tufayli O'zbekiston xalqaro ta'lim maydonida faol va munosib ishtirokchiga aylandi.

Yurtimizda Britaniyaning Vestminster xalqaro universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Janubiy Koreyaning INHA universiteti, AQSHning Amerika texnologiyalar universiteti, Hindistonning Amity universiteti, Singapurning MDIS instituti kabi nufuzli oliygo'hlar filiali faoliyat yuritaypti. Bu jarayon nafaqat bilim almashinuvi, balki ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va kadrlar salohiyatining yangi bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda.

UNESCO bilan izchil hamkorlik va yangi loyihalar

O'zbekiston va UNESCO o'rtasidagi hamkorlik tobora yangicha mazmun kasb etmoqda. Bu munosabatlar nafaqat rasmiy kelishuvlar, balki amaliy natijalar, inson salohiyatiga qaratilgan loyihalar orqali mustahkamlanmoqda.



Mamlakatimizda UNESCO bilan hamkorlikning samarali yo'nalishlaridan biri mazkur xalqaro tashkilot kafedralari faoliyatidir. Hozir yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarida UNESCOning 8 ta kafedrasi faoliyat yuritmoqda. Ularning har biri ta'lim, fan, madaniyat, kommunikatsiya va axborot sohalarida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ilmiy tadqiqot salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanish g'oyalarni ilgari surishga xizmat qilmoqda.

UNESCO kafedralari YUNITVIN (UNITWIN) dasturi doirasida tashkil

etiladi. 1992-yilda ishga tushirilgan mazkur dastur universitetlar o'rtasida tajriba va bilim almashinuvi rag'batlantiradi, global hamkorlikni kengaytirishga ko'maklashadi. Bugun ushbu tarmoq 114 ta mamlakatda joylashgan 700 dan ortiq kafedra va ilmiy markazlarni birlashtirgan.

O'zbekistonda ularning yorqin namunasi sifatida Urganch davlat universitetidagi barqaror rivojlanish ta'limi hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" xalqaro universitetining barqaror tarixiy turizm UNESCO kafedralarini misol qilish mumkin. Mazkur kafedrlar tomonidan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalar ishtirokida nodavlat tashkilotlar hamda xalqaro mutaxassislar bilan hamkorlikda turli ilmiy anjumanlar o'tkazildi, talabalar almashinuv dasturlari ishlab chiqildi, ilmiy maqolalar chop etildi.

Shuningdek, Toshkent va Farg'ona shaharlarining UNESCOning Global ta'lim shaharlari tarmog'iga qo'shilishi ham yurtimizning o'qitish sohasidagi xalqaro nufuzini yanada oshirdi. Bu mamlakatimizning jahon miqyosidagi ma'rifiy jarayonlarga faol integratsiyalashayotganidan dalolat beradi.

Qishloq taraqqiyoti va kasbiy ta'lim: UNESCO — Yevropa Ittifoqi qo'llovida

O'zbekiston qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish borasida xalqaro hamkorlikni

ko'zlangan asosiy maqsad qishloq joylarda mehnat bozori ehtiyojlariga mos, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir.

Loyiha doirasida qishloq xo'jaligi sohasida kadrlar tayyorlash tizimi tubdan takomillashtirilmoqda. Intensiv bog'dorchilik, issiqxona xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash, suv xo'jaligi, melioratsiya, suv tejovchi sug'orish tizimlariga xizmat ko'rsatish kabi zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu yo'nalishlar qishloq xo'jaligi tarmog'ida mehnat bozori talablariga to'liq javob beradigan, amaliyotga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Uning muhim yo'nalishlaridan biri O'zbekistonning Milliy professional ta'lim strategiyasini ishlab chiqish hamda qishloq va suv xo'jaligi sohalari bo'yicha yangi kasbiy standartlar, ta'lim dasturlarini yaratishdir.

Shu bilan birga, pilot ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlash, laboratoriyalar tashkil etish va ta'lim muhitini tubdan yangilash ishlari bajarilmoqda.

Global hamjamiyatdagi yangi o'rin

O'zbekiston Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyaning ratifikatsiya qilgan 39 mamlakatdan biriga aylandi. Bu qaror yurtimizning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. Oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va akademik mobillikni ta'minlashda yangi imkoniyatlar ochadi.

Konvensiyaga a'zo davlatlar orasida Yaponiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qirolligi, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar bor. Shuningdek, Gruzia, Litva, Lyuksemburg, Slovakiya va Ruminiya ham konvensiyaga qo'shilgan.

Konvensiyaning birinchi va yettinchii moddalariga ko'ra, a'zo davlatlarga xorijiy mamlakatda olingan oliy ta'limga oid malakalarni o'zaro tan olish majburiyatini yuklaydi. Bu esa har bir davlat uchun o'z milliy maqsadlari va ta'lim standartlaridan kelib chiqib, xorijda olingan malakalarni baholash imkonini ta'minlaydi. Shu bilan birga, xorijlik fuqarolar uchun ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda ham tegishli talablar qo'yiladi.

Bu jarayon o'qishning davomiyligi va barqarorligini ta'minlash, xorijda egallangan ma'naviyatimizdagi vakolatxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan "O'zbekistonning qishloq joylarida ishga joylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish" loyihasidir.

2020-2026-yillarga mo'ljallangan, umumiy qiymati 9,6 million yevrolik mazkur tashabbus UNESCO va Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi ta'lim islohotlariga ishonchli hamkorligining yorqin namunasidir. Undan

Shu tariqa konvensiya talabalarning xalqaro akademik mobilligini rag'batlantirish bilan birga O'zbekistonda milliy malaka talablari va standartlarini xalqaro me'yorlarga uyg'unlashtirib, o'qitish tizimining faol integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Konvensiyaning 7-moddasiga ko'ra, ta'limda sifat kafolati a'zo davlatlarning milliy organlari hamda xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari orqali ta'minlanadi. Ishtirokchi mamlakatlar hukumatlararo konferensiyasi esa muntazam ma'lumot almashinuvi ta'minlab, a'zo davlatlarda o'qitish sifati nazorat qilish va takomillashtirish bo'yicha yo'riqnoma va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Shunday qilib, global konvensiya O'zbekistonda ta'lim xizmatlari sifati va malakalarni xalqaro standartlar asosida tan olishda eng muhim platformaga aylanib, milliy ta'lim tizimini dunyo maydonida raqobatbardosh va integratsiyalashgan holatga olib chiqadi.

Xorijda o'qish va faoliyat yuritish imkoniyati

Bugun 7 milliondan ortiq yosh o'z yurtidan tashqarida tahsil olmoqda. Bu ko'rsatkich 2000-yildagidan qariyb uch baravar ko'p. Xorijlik talabalar eng ko'p o'plandigan mamlakatlar Osiyo, Yevropa va AQSHda joylashgan.

UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, kelgusi yillarda chet elda tahsil oluvchi talabalar soni yanada oshishi, 8-9 millionga yetishi kutilmoqda. Bu esa ta'limning globallashuvi, diplomlarni tan olish tizimi takomillashuvi va yuqori sifatlil ta'limga talab ortishi bilan bog'liq.

O'zbekistonning Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyaning ratifikatsiya qilishi mamlakatimiz fuqarolari uchun xorijiy ta'lim tizimiga chuqur kirish imkoniyatini berdi. Mazkur konvensiya diplom va malakalarni xalqaro miqyosda tan olish uchun yagona huquqiy asosni belgilaydi. Shu orqali O'zbekiston talabalari chet eldagi oliygo'hlarda tahsil olishi, magistratura va doktorantura dasturlariga teng huquqli qabul qilinishi mumkin.

Ayni paytda har bir davlat o'z milliy maqsadlari va talabalaridan kelib chiqqan holda xorijda olingan malakalarni baholash, ular asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun alohida shartlar belgilashi mumkin. Bu talablar maxsus sinovlar, qo'shimcha malaka sertifikatlar yoki qayta tayyorlashni qamrab olishi kerak. Konvensiya esa bu jarayonlarni soddalashtirilgan va ochiq mexanizmlar orqali amalga oshirish imkonini beradi.

Masalan, O'zbekiston oliygo'hi bitiruvchisi o'z malakasini konvensiyaga a'zo davlatlardan biri — Buyuk Britaniyada soddalashtirilgan tartibda tan olibdir, shu mamlakatda malakali mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Bu mexanizm nafaqat yoshlar uchun xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh muhit yaratadi, balki milliy malaka tizimini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa konvensiya O'zbekistonning oliy ta'lim tizimi va yosh avlodning global mehnat bozorida imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Talabalar chet elda o'qib, ilg'or tajribalarni o'zlashtirib, xalqaro ilmiy va texnologiya loyihalarida faol ishtirok etishi mumkin. Bu, o'z navbatida, keyinchalik xorijdan qaytgan mutaxassislar mamlakatimizda ta'lim, fan va texnologiya sohasiga innovatsion g'oya va yangi yondashuvlarni olib kirishi uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga, konvensiya O'zbekistonning ta'lim xizmatlari bozori imkoniyatlarini ham kengaytiradi va xorijlik talabalarni mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga jalb etishga xizmat qiladi.

Umuman, UNESCO global konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi O'zbekistonda jahon ta'lim maydonining teng huquqli ishtirokchisiga aylantirib, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, intellektual salohiyatni oshirish va yosh avlodning xalqaro miqyosda erkin harakatlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.



Gulnoza JO'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy markaz ochilishi, sun'iy intellekt va muzeylar faoliyati bo'yicha xalqaro forumlar — ularning barchasi mamlakatimizning yangicha, zamonaviy qiyofasini namoyon etadi. Samarqand bugun yana bir bor tarix sahnasi markazida. Bu shunchaki xalqaro tadbir emas, yangi O'zbekistonning o'z so'zini aytayotgani, jahon bilan teng hamkorlikka intilayotgani isbotidir.

MADANIYATLARNI BIRLASHTIRGAN SAMARQAND

Samarqand shahri uch ming yillik tarixi davomida hashamati, madaniy javohirlari va ilmiy salohiyati bilan nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqda. UNESCO Bosh konferensiyasi sessiyasi so'nggi qirq yilda ilk bor Parijdan tashqarida, ya'ni Samarqandda o'tkazilgani ham shahar tarixi sahifalariga oltin harflar bilan bitiladigan voqea bo'ldi. Dunyo hamjamiyati bu orqali yurtimizdagi islohotlarni, ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi yangilanishlarni e'tirof etmoqda. Bu nafaqat mamlakatimizning yangi bosqichdagi global obro'-e'tiborini, jadal rivojlanayotgan yangi O'zbekiston g'oyasining samarali natijalarini ham ifodalaydi.

O'zbekistonda UNESCO bilan 2027-yilgacha mo'ljallangan besh yillik hamkorlik dasturi doirasida ko'plab muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu asosda buyuk ajdodlarimiz — Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Kamoliddin Behzod, Ali Qushchi singari zotlarning yubileylari keng nishonlandi. "Alpomish" dostonidan tortib, Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqandning tarixiy markazlari xalqaro meros ro'yxatiga kiritildi. Bu nafaqat O'zbekiston madaniyatining jahon miqyosida tan olinishi, balki o'zligimizni saqlagan holda global hamjamiyat bilan teng muloqotga kirishganimizning yorqin ifodasidir.

Samarqand — tarix bilan zamon uyg'unlashgan maskan. Birgina Ulug'bek rasadxonasida yaratilgan yulduzlar jadvali keyinchalik Kopernik va Kepler singari yevropalik olimlar kashfiyotlariga zamin yaratgani xalqimizning ilm-fan tarixidagi o'rnini ko'rsatadi. Shu muazzam zaminda, sivilizatsiyalar chorrahasida insoniyat kelajagini muhokama qiluvchi eng nufuzli xalqaro anjuman o'tkazilgani diqqatga sazovor. Davlatimiz rahbari tadbirdagi nutqida insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolar — iqlim o'zgarishi, madaniy merosni asrash, sun'iy intellektni to'g'ri yo'naltirish, inklyuziv

ta'limni rivojlantirish kabi masalalarda O'zbekistonning aniq tashabbuslarini ilgari surgani ayni muddao bo'ldi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun UNESCO platformasini yaratish, Hujjatli meros xalqaro kunini joriy



etish, raqamli meros bo'yicha xalqaro institut, xotin-qizlar yetakchiligi akademiyasini tashkil etish, "UNESHETKoning ekologik poytaxti" global tashabbusini yo'lga qo'yish, sun'iy intellekt etikasi bo'yicha xalqaro ekspertlar anjumanini

o'tkazish kabi takliflar juda o'rinnlidir. Bu tashabbuslar O'zbekistonning xalqaro miqyosda faol ishtirokchi, global muammolarni qiyoshida tashabbuskor davlat sifatida tan olinganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ayni paytda O'zbekistonda UNESCOning 8 ta kafedrasi, 24 ta hamkor maktabi faoliyat yuritmoqda. Toshkent va Farg'ona shaharlari UNESCOning "Ta'lim shaharlari" global tarmog'iga qo'shilgan. "Shashmaqom", "Lazgi", "Katta ashula", "Askiya", "Atlas va adras to'qish" kabi o'zbek milliy madaniy an'analari nomoddiy meros sifatida UNESCO ro'yxatiga kiritilgan. Xorazm, Buxoro, Shahrisabz, Samarqand singari tarixiy shaharlarimiz jahon merosi ro'yxatida turibdi. Zarafshon — Qoraqum yo'lagi bo'yab joylashgan yangi obidalar ham shu ro'yxatga qo'shilgan. Bu safar Samarqand faqat mezbora emas, balki global muloqotning faol ishtirokchisi hamdir. Dunyo yetakchilari, UNESCO delegatlari bu yurti madaniyatlararo muloqot, tinchlik va taraqqiyot ramzi sifatida tan olmoqda.

Konferensiya doirasida qator qo'shimcha xalqaro tadbirlar o'tkazilmoqda. Buxoroda zamonaviy san'at biyennalesi, Toshkentda



ERTANGI ISTIQBOL, YURTIMIZNING KELGUSIDAGI IQTISODIY RIVOJI UCHUN

RO‘YXATGA OLIISH TADBIRLARI 2026–YIL 15–YANVARDAN 28–FEVRALGA QADAR O‘TKAZILADI

Aholining demografik tarkibi uzoq muddatli davlat siyosatining tayanchi sanaladi. Har bir davlatni rivojlantirish istiqbolini belgilashda unda yashovchi aholi soni, turmush darajasi va farovonligi, qishloq xo‘jaligi holatini aniqlash juda muhim. Bunda ro‘yxatga olish dolzarb ahamiyatga ega.

Bu jarayon mamlakat aholisining muayyan vaqtdagi hisobini olish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko‘lamli tadbir bo‘lib, aholi to‘g‘risidagi ishonchli axborot manbaidir. Aholi soni, tug‘ilish ko‘rsatkichlari, migratsiya oqimlari — bularning barchasi byudjet xarajatlari, resurslar taqdimoti va strategik rejalashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Aholini ro‘yxatga olish nega kerak?

Ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida aholini ro‘yxatga olish dastlab 1897-yilda o‘tkazilgan bo‘lib, undagi ma‘lumotlar XIX asr oxirida O‘zbekistonda mavjud oilalar, aholi soni, yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug‘ilish, o‘lim kabi demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam bergan.

Keyinchalik O‘zbekiston hududida bir necha bor aholini ro‘yxatga olish ishlari tashkil etilgan. Yurtimizda bunday tadbir so‘nggi bor 1989-yili o‘tkazilgan. O‘shanda aholining umumiy soni 19 million 700 mingni tashkil etgan. Afsuski, oxirgi 36 yilda aholini ro‘yxatga olish tadbiri o‘tkazilmadi. Shuning uchun keng qamrovli islohotlar orqali barqaror taraqqiyot yo‘lidan borayotgan yangi O‘zbekiston uchun bu masala yanada dolzarbdir.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2019-yil 5-fevralda davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi.

Unda aholini ro‘yxatga olishning tashkiliy va metodik prinsiplari, dasturiy-texnik ta‘minoti va ma‘lumotlarni qayta ishlashning texnologik jarayonlarini sinovdan o‘tkazish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonlaridagi mas‘uliyatini yanada oshirish borasida qator vazifalar belgilandi.

2020-yil 11-noyabrda “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Unda bu tadbirni o‘tkazish uchun Statistika agentligi mas‘ul etib belgilandi.

Qonunda aholini har 10 yilda, qishloq xo‘jaligini esa har 5 yilda kamida bir marta

ro‘yxatdan o‘tkazish belgilangan. Shu bois, 2021-yilda aholini, 2022-yilda esa qishloq xo‘jaligini sinov tariqasida ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazildi. Lekin to‘laqonli ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun zarur omillar va xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish muayyan vaqtini taqozo etishi bois, bu tadbir keyinga qoldirilgan edi.

O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish kadastr ma‘lumotlarini ham yangilashi kutilmoqda, chunki statistika organlari nafaqat aholini, balki uy-joy fondini ham ro‘yxatga oladi.

Aholi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar turli ma‘muriy manbalarda, davlat idoralari ma‘lumotlar bazalarida mavjud. Biroq ularning barchasida axborot to‘liq emas. Bu boradagi ma‘lumotlarda nomuvofiqliklar ko‘zga tashlanmoqda.

Ahamiyatlisi, ro‘yxatga olish haqiqatda yashayotgan aholi to‘g‘risida nafaqat butun mamlakat bo‘ylab, balki mintaqalar kesimida ham ma‘lumot beradi.

Qaysi jihatlar muhim?

Mutaxassislar O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish fuqarolarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. Masalan, maktab yoshidagi bolalar soni haqidagi ma‘lumotlar maktab qurish bo‘yicha rejalarni muvofiqlashtirishga yordam bersa, hududlar kesimida qayerda va qaysi sohada yangi ish o‘rinlariga ehtiyoj mavjudligi, qanday mutaxassislar kerakligini bilish uchun ishsizlar soni va ularning malaka darajasini o‘rganish lozim. Favqlodda vaziyatlarda FVV xodimlari, shuningdek, shifokorlar aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari asosida zarur yordam ko‘lamini belgilaydi.

Bu jarayon tadbirkorlik rivojiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aholi soni va daromadi, uning turar joyga ehtiyoji to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan holda, masalan, maishiy texnika korxonalari ishlab chiqarish hajmini prognoz qilishi, ularni import qiluvchi kompaniyalar esa xaridlarni rejalashtirishi va zararni minimallashtirishi mumkin.

Shuningdek, aholini ro‘yxatga olish makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni kelgusi 10-20 yillik davrga prognoz qilish uchun zarur. Statistik ma‘lumotlar manzilli dasturlarni ishlab chiqish, fuqarolar salomatligini mustahkamlash, oilalarga moddiy ko‘maklashishda muhim ahamiyatga ega.

Ma‘lumotlar davlat maktablari, kutubxonalar, sog‘liqni saqlash muassasalari, energiya resurslari va suv ta‘minotiga ehtiyojni ko‘rsatib beradi. Aholini ro‘yxatga olish natijalari hukumat tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga ajratilishi zarur bo‘lgan mablag‘ miqdorini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Masalan, yoshlar ulushi yuqoriligi ta‘lim, yangi ish o‘rinlari, tadbirkorlikni rivojlantirishni



Dolzarb mavzu



talab qiladi. Shu bois, aholisining qariyb 60 foizi yoshlar bo‘lgan O‘zbekiston uchun infratuzilma, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, transport kabi sohalarida yana nimalar qilish kerakligini bilish juda muhim. Daromad darajasi, bandlik, yashash sharoitlari, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini chuqur o‘rganish esa qo‘llab-quvvatlash dasturlari, imtiyozlar va ijtimoiy himoya mexanizmlarini manzilli tashkil etishga xizmat qiladi.

Bunday ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish aholining zaif qatlamlarini aniqlash, kambag‘allik darajasi va sabablarini baholash, ijtimoiy tengsizlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu kabi ustuvor yo‘nalishlarda faol siyosat yuritilayotgan mamlakatimizda bunday baholash mezonlari, albatta, xolis va samarali qarorlar qabul qilishda qo‘l keladi.

Ro‘yxatga olish tadbirlari 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o‘tkaziladi

Davlatimiz rahbari joriy yil 12-sentabr kuni aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ishlarni samarali tashkil etishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

— Mamlakatimizda aholi va qishloq xo‘jaligini yalpi ro‘yxatga olish juda katta tadbir, — deydi Milliy statistika bo‘limi raisi Behzod Hamroyev. — Shu bilan birga, katta mablag‘ va mehnat talab qiladigan jarayon. Bunda nafaqat aholi soni, balki milliy tarkibi, yoshi, yashash sharoiti, bandligi, uy-joy, to‘zg‘or buyumlari bilan ta‘minlangani kabi ko‘plab demografik, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar qamrab olinadi. Dunyodagi ko‘plab davlatlar aholisini

har 10 yilda ro‘yxatga olib boradi. Chunki aholi to‘g‘risidagi ishonchli ma‘lumotlar ularni ro‘yxatga olish orqali yig‘iladi.

Ro‘yxatga olish natijasida Yevropa statistikasi konferensiyasining 2020-yildagi tavsiyalari asosida 38 million aholining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati, faoliyat turi, daromad manbalari to‘g‘risida yagona ma‘lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Shuningdek, mamlakatimizdagi qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish holati, chorva mollari va parrandalar soni aniqlanadi. Bu orqali qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilayotgan yillik 25,6 trillion so‘m, jumladan, 2,2 trillion so‘m byudjet mablag‘lari samaradorligi, sohadagi xizmatlar hajmi va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun zarur ma‘lumotlar to‘plami yaratiladi.

Ro‘yxatga olish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun “mahalla yetiligi” maxsus o‘quv dasturi asosida tayyorlanadi va rag‘batlantiriladi. Buning uchun statistika tizimini mustahkamlash maqsadida Jahon banki ko‘magida amalga oshirilayotgan loyiha mablag‘lari yo‘naltiriladi.

Taqdimotda xalqaro tajribadan kelib chiqib hamda Jahon banki, UNFPA va FAO tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqilgan aholi va qishloq xo‘jaligini bir vaqtda ro‘yxatdan o‘tkazish taklifi ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, O‘zbekistonda ro‘yxatga olish tadbirlari 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o‘tkaziladi. Dastlabki 17 kuni internet orqali, keyingi bir oy mobaynida esa “mahalla yetiligi” ishtirokida uyma-uy yurib amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Ana shu maqsadda 2021-yilda to‘rtta hudud — Toshkent shahrining Yashnobod, Andijon viloyatining Xo‘jaobod, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanlarida hamda Xorazm viloyatining Xiva shahrida

sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazilgan edi.

Bu tadbir uch xil usulda o‘tkazildi. Ya‘ni qog‘oz shaklda, internet tarmog‘i va planshet qurilmasi orqali.

Sinov tariqasida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, qog‘oz shakllarni to‘ldirish va ularidan ma‘lumotlarni elektron tizimlarga ko‘chirish juda ko‘p vaqt va mablag‘ talab qiladi. Shuning uchun milliy darajada aholini ro‘yxatdan o‘tkazishning qog‘oz shaklidan voz kechishga qaror qilindi.

Sinov natijalari tadbiri elektron shaklda o‘tkazish tezkor, ishonchli, samarali va iqtisodiy jihatdan kamxarj ekanini ko‘rsatdi.

Yana bir muhim jihat. Bugungi kunda o‘qish, ishlash maqsadida oilasi bilan xorijda bo‘lib turgan yurtdoshlarimiz bor. Bu vatandoshlarimiz ro‘yxatga olish boshlangandan keyin bevosita Statistika agentligi sayti orqali o‘zlari va oila a‘zolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kiritishi mumkin. Shuningdek, harbiy xizmatni o‘tayotgan, jazoni ijro etish muassasalarida bo‘lgan fuqarolar ham bevosita o‘sha yerdagi mutasaddilar bilan hamkorlikda ro‘yxatga olinadi. Bu ma‘lumotlar xavfsizligi kafolatlangan.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoni ayni maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Hujjat bilan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Milliy statistika bo‘limi ayni respublika komissiyasi ishchi organi hisoblanadi.

“Mahalla yetiligi” tizimida ishlovchi xodimlar 2025-yil 15-dekabrden 2026-yil

1-martgacha bo‘lgan davrda ro‘yxatga olish tadbiriga jalb etiladi. Bunda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Milliy statistika bo‘limi hamda mas‘ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda “mahalla yetiligi” tizimida ishlovchi xodimlar planshet qurilmalaridan foydalanish holda ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazishini ta‘minlaydi.

Tadbirida ro‘yxatga oluvchi sifatida ishtirok etadigan “mahalla yetiligi” tizimida ishlovchi va boshqa jalb etiladigan xodimlar Jahon banki bilan hamkorlikdagi “O‘zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi doirasida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining bir yarim baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantiriladi.

Ro‘yxatga olish tadbiriga jalb etiladigan xodimlarning asosiy ish joyi, lavozimi va o‘rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

Ro‘yxatga olish tadbirlari doirasida davlat organlari va tashkilotlari 2026-yil 15-yanvardan 31-yanvargacha o‘z tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikadagi barcha o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlari, shuningdek, davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlari va ularning filiallarida tahsil olayotgan talabalarining census.stat.uz portalida ro‘yxatdan o‘tishini ta‘minlaydi.

Fermer xo‘jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanayotgan korxona va tashkilotlar, aholining ayrim toifalari ham tegishli tartibda ro‘yxatga olinadi.

Qishloq xo‘jaligi — iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i

Yer resurslari har doim milliy boylik va davlatning barqaror taraqqiyotidagi eng muhim omillardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, hozir dunyoda cheklangan tabiiy boylik uchun raqobat tobora ortib borayotgan sharoitda yerdan samarali foydalanish masalasi dolzarblashgan.

Har bir qarich yer qat‘iy nazorat ostida bo‘lishi, belgilangan maqsadga muvofiq ishlatilishi shart. Shundaygina qishloq xo‘jaligida barqaror ishlab chiqarishga erishish, investitsiya jalb etish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilash mumkin.

Bu soha nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlaydi, balki millionlab insonlar bandligi va daromad manbai sanaladi. Shu sababli qishloq xo‘jaligining bugungi holatini baholash ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasini aniqlash, fermerlar muammolarini o‘rganish, yer va suvdan foydalanish samaradorligiga e‘tibor qaratish, agrar sohani rivojlantirish choralarini belgilash imkonini beradi.

Zero, obyektiv statistik ma‘lumotlarsiz agrar islohotlarni muvofaqiyatli amalga oshirish, sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish va eksport strategiyasini shakllantirish mumkin emas. Shu bois, ro‘yxatga olish tadbiri aholi va qishloq xo‘jaligining real ko‘rsatkichlarini aniqlash, davlat dasturlarini maqsadli hamda samarali amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi salohiyatini tizimli va sifatli baholash oddiy statistik jarayon emas, balki mamlakatning tizimli rivojlanishi uchun strategik asosdir. Bu yurtimiz uchun barqaror, adolatli va farovon taraqqiyot sari dadil qadam sanaladi.

Shunday ekan, bu jarayonni sifati va to‘liq qamrov bilan o‘tkazishda har bir fuqaroning faolligi zarur.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MAHALLIY XOMASHYODAN BOZORGIR MAHSULOTLAR

Mamlakatimizda bunyodkorlik ko‘lami kengaygani sari qurilish materiallariga talab oshmoqda. Shu bois, qurilish materiallari ishlab chiqarish taraqqiy etib boryapti. Bu, o‘z navbatida, shu yo‘nalishda faoliyat yuritadigan tadbirkorlar uchun katta imkoniyatlar eishigini ochyapti. Xususan, Surxondaryo viloyatida ham yangi korxonalar tashkil etilyapti. Sohaga zamonaviy texnologiyalar joriy qilinib, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirilmoqda.



Bir manzil



Surxondaryoda shu yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy qiymati 32,8 million dollarga teng bo‘lgan 31 ta yirik loyiha

hayotga tatbiq etildi. Natijada 671 fuqaro doimiy ishga ega bo‘ldi. Termiz tumanidagi bazaltidan issiqlik saqlovchi mineral plitalar

ishlab chiqarish loyihasi so‘zlarimiz isbotidir. Bu loyiha nafaqat innovatsion yechimlarga asoslangan, balki energiya samaradorligi, ekologik tozaligi bilan ham ajralib turadi.

— Keyingi yillarda yurtimizda qurilish sohasi tadbirkorlarini qo‘llab-quvvatlash uchun qator imtiyoz va yengilliklar berildi. Bu biz kabi ishbilarmonlarga imkoniyatlar eishigini ochmoqda, — deydi Termiz tumanidagi “Surxon bazalt” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ish boshqaruvchisi Mahmud Xolmatov. — Korxonamiz xorijdan olib kelingan eng zamonaviy, energiya tejamlar texnologiyalar bilan jihozlangan. Bu ekologik toza, kamxarajli va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Bazalt plitalar ekologik toza va tabiiy xomashyodan tayyorlangani bois, uzoq yillar o‘z xususiyatini yo‘qotmaydi. Undan uy-joy va binolarda foydalanilsa, xona ichidagi haroratni 30 foizgacha saqlash imkonini beradi. Shu orqali istish yoki sovitish uchun sarflanadigan energiyani 40 foizgacha tejaydi. Korxonada qurilish va montaj ishlari to‘liq yakunlangan. Xorijdan malakali mutaxassislar chaqirilgan. Yosh kadrlar uchun maxsus o‘quv-amaliy seminar va dasturlar tashkil etmoqda.

— Korxonada loyiha bo‘yicha dizayn ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi.

Ushkunalarini o‘rnatib, ularni aniq sozlash va sinovdan o‘tkazish jarayonidamiz. Sozlash ishlari muvaffaqiyatli yakunlangach, istish va yoqish jarayoni boshlanadi, — deydi xitoylik mutaxassis Ju Yuypeng. — Shu bilan birga, o‘zbekistonlik yosh hamkasblarimizga texnologiyani boshqarish sirlarini o‘rgataymiz. Ular yangi texnologiyani tez va samarali o‘zlashtiryapti.

“Surxon bazalt” mas‘uliyati cheklangan jamiyatida issiqlik saqlovchi mineral plitalar talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda 2 xil qalinlikda va 5 xil zichlikda tayyorlanadi. Korxona ishlab chiqarishda mahalliy xomashyodan foydalanadi. Mahsulot tarkibida ishlatiladigan bazalt tosh va dolomit Oltinsoy tumanidagi kondan olinadi. Korxona ishga tushgach, yiliga 4 million



dollarlik mahsulot Afg‘oniston, Tojikiston kabi qo‘shni davlatlarga eksport qilinadi.

Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Surxonsement-invest” MCHJ ham eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan.

— Korxonada ishlab chiqarish jarayoni to‘liq ko‘mir yoqilg‘isiga asoslangan. Bu samaradorlikni oshirib, xarajatlarni optimallashtiradi. Muhimi, energiya manbalaridan oqilona foydalanish imkonini yaratadi, — deydi MCHJ bosh direktori Miraziz Mahmudov. — Zamonaviy filtrlash va chang-gaz tozalash texnologiyalari atmosferaga chiqadigan zararli moddalar miqdorini keskin kamaytiradi. Shu bois, ishlab chiqarishda ko‘mirdan foydalanishimizga qaramay, korxona atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Amaldagi ekologik standartlarga to‘liq javob beradi.

Korxonada ishlab chiqarishning barcha bosqichida, hatto har soatda tayyor mahsulotdan namuna olinadi. U zamonaviy, yuqori texnologiyali laboratoriyada qat‘iy sifat nazoratidan o‘tkaziladi. Bu jarayon mahsulotning barcha texnik standartlarga to‘la javob berishini ta‘minlaydi.

Xodimlarning aksariyati mahalliy yoshlar va malakali mutaxassislardir. Ular uchun munosib mehnat sharoiti yaratilgan. Bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki hududda ijobiy ijtimoiy muhit shakllanishiga ham hissa qo‘shyapti.

Sarvar to‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Shu maqsadda qator tashkilotlar hamkorligida jamiyatda maromiylik kayfiyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, targ'ibot ishlarida dolzarb 90 kunlik belgilab olindi.

Otabek HASANOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi rahbari:



— Ayrim oilalarda yillar davomida katta mashaqqat bilan to'plangan mablag'ni nom chiqarish, obro' qozonish maqsadida bir kunda ortiqcha marosimlar, dabdabali to'y'larga sarflab yuborish holatlari keskin ortmoqda. Yana bir xavotirli vaziyat shuki, kreditni zarurat uchun emas, balki obro' yoki odamlardan ortda qolmaslik uchun olish odati holga aylanib qolmoqda. Oqibatda yosh oilalar hayotining dastlabki yillarini qarz bilan boshlaydi. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki ruhiy bosim bo'lib, ko'pincha oilaviy nizolar, erta ajralishlar va boshqa ko'ngilsiz holatlarga olib kelmokda.

“Maromiylik” loyihasi aholi orasida me'yorni saqlash, isrofgarchilikdan tiyilish, shukronalik va bag'rikenglik fazilatlarini targ'ib etishga qaratilgan. Albatta, bu maqsadga darrov erishib bo'lmaydi. Inson ongi, tushunchasi, ma'naviy qarashlarini o'zgartirish uchun yillar kerak. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar — birinchi qadam. Ilgari ham ushbu masalalar ko'tarilgan, bong urilgan. Ammo bu safar ilmiy va tizimli yondashuv qilmasak bo'lmaydi.

2024-yil mart-avgust oylarida to'y va marosimlarni ixcham, kamxarj o'tkazishning oila iqtisodi hamda ma'naviyatiga ta'sirini o'rganish maqsadida Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 9 hududda o'tkazilgan so'rovnomada 1507 respondent ishtirok etgan. Natijada 61 foiz respondent to'y'larni sodda, oilaviy muhitda o'tkazishni ma'qul ko'rishni ma'lum bo'ldi. 26 foiz ishtirokchi kelishuv asosida, 22 foiz milliy an'analarga muvofiq, to'y o'tkazish tarafdori ekanini ma'lum bo'ldi.



“Marry me”, “Love story” turidagi tadbirlar milliy qadriyatlarga yot deb baholangan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, to'y'larda o'rtacha 300-500 kishi qatnashishi, 50-100 million so'm atrofida mablag' sarflanishi, 45-50 foiz holatda oila to'y uchun qarz olishi aniqlangan.

2024-yilda mamlakatimiz bo'yicha to'y va marosimlarga taxminan 12 milliard dollar sarflangan. 70-80 foiz migratsiya mablag'i to'y va ma'rakalarga yo'naltirilgan. Bu ma'lumotlar kishini tashvishlantirmay qo'ymaydi.

Ixcham to'y qilganlarga rag'bat mexanizmi haqida ham o'ylaymiz. Katta to'y o'tkazish odamlar orasida gap-so'z bo'lish, shuhrat qozonish istagidan kelib chiqyapti. Ana shu shov-shuvni ixcham to'y'lar borasida ham qilish mumkin. “Siz namunali oila ekansiz, mana sizga rag'bat”, deya to'y egasini rag'batlantirish natija berishiga umid qilamiz.

Yo'l boshida turibmiz. Chora-tadbirlar ko'pchilikka yoqmasligi mumkin. Ammo bugun to'y-hashamlardagi isrofgarchilikni yoshlar ham tushunyapti. Yaqinda bir qiziq ma'lumotga ko'zim tushdi. 30 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazilganida ularning 53 foizi “Bizga dabdabali to'y kerak emas, ixcham to'y tarafdorimiz. Lekin ota-onamiz majbur qilyapti” degan fikrlarni bildirgan. Yoshlarning kamxarj to'y qilish istagi tahsinga sazovor. Demak, ular bilan birga tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borsak, ota-onalarning ham dunyoqarashi o'zgarishi mumkin. Internetdagi maqolalarimizni ko'rishlar soni va “Shu sa'y-harakatlarini ertaroq boshlamaysizlarmi?”, “Yaxshi ham boshladinglar, shu asos kerak edi bizga”, “Bizning mahallaga ham kelib, to'y qiladiganlarga tushuntiringlar” kabi izohlarni ko'rib, ko'ngilda umid paydo bo'ldi. Demak, ortiqcha chiqimsiz ixcham to'y va ma'rakalarni xalqimiz ham xohlayapti. Faqat biz buni odamlarga to'g'ri tushuntirib, yetkaza olsak, aholi xayrixohlik bilan qabul qilsa, samara bo'lishi shubhasiz.

Xalqimiz azaldan ilm-ma'rifatli, intellekti yuqori bo'lgan. O'zbek desa faqat to'y, tadbir tushunilmasligi shart. Keyingi avlodga nimani qoldiramiz, qaysi jihatimiz bilan namuna bo'lamiz? Qaysi qadriyat, urf-odat yoki xususiyatni fazilatlarimiz meros qoladi? Shu kabi savollarga javob topish haqida o'ylasak, ixcham, kamxarj to'yga qanday zarurat borligi oydinlashadi.



Belgilangan 90 kundan keyin nima bo'ladi? Tashviqotni davom ettiramizmi yoki huquqiy choralarni, majburiyatni kuchaytiramizmi? Ishlarimizni qaysi yo'nalishda bajarishimiz kerak? Albatta, holat o'rganiladi, ilmiy tahlillar o'tkaziladi. Natijalar sarhisob qilinadi va loyiha doirasidagi ishlarni shulardan kelib chiqib rejalashtiramiz.

Shuhrat USMONOV,
O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy
faoliyatini qo'llab-quvvatlash “Nuroniyy”
jang'armasi boshqaruvchi raisi o'rinbosari:



— Oila va mahallaning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligini asrash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bu borada yetarli sharoit va imkoniyat yaratilgan bo'lsa-da, hali ham aholiga tushuntirish kerak bo'lgan masalalar ko'p. Jumladan, so'nggi yillarda ajrashishlar ko'payishi oqibatida o'g'il-qizlar tarbiyasida jiddiy nuqsonlar paydo bo'layotir. Ayrim hamyurtlarimiz shuhratparastlik, manmanlikka berilib, to'y'lar, oilaviy tantana, ma'raka va marosimlarda juda katta isrofgarchilikka yo'l qo'yayotgani ham bor gap.

Albatta, muammolar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Yillar davomida yig'ilib boradi va asta-sekin jamiyatda og'riqli oqibatlarni ko'rsata boshlaydi. So'nggi paytlarda biz tantana, ma'raka, ayniqsa, to'y-hashamlarni me'yordan ortiq darajada dabdaba bilan o'tkazyapmiz. Shu ma'noda, turmushning pastu balandini ko'rgan, katta hayotiy tajriba va salohiyatga ega nuroniylar barcha tadbirlarda yetakchilikni qo'lga olishi kerak.

ildizidan kelib chiqib o'zgartirishlar kiritilsa, dabdababozlik, manmanlik, isrofgarchilikning oldi olinadi.



Gulnora YO'LCHIYEVA,
O'zbekiston mahallalari uyushmasi
mas'ul xodimi:

— Shifokorlar va oilalarni tadqiq etuvchi mutaxassislar qarindoshlar o'rtasida tuziladigan nikohga xayrixohlik bildirmaydi. Chunki qarindosh bilan qurilgan turmushdan tug'iladigan bolalarda irsiy kasalliklar uchrashi ehtimoli katta. Agar orada kelishmovchilik chiqsa, qarindoshlik aloqalariga putur yetishi ham mumkin. Begonalar o'rtasida tuzilgan nikohdan esa sog'lom bola tug'iladi. Kelin-kuyov sababli jamiyatda ijtimoiy aloqalar rivojlanadi. Shu bilan birga, to'y-ma'rakalarda ortiqcha havasga berilish oilani kambag'allikka olib boradi.

“Hashamatli to'yga sarflanadigan mablag'ni ehtiyojmand bir oilaning hayotini yaxshilashga yo'naltirish — insoniylarning eng oliy ko'rinishi. Qalbida shukrona, rozilik bor inson hamma narsada me'yori, maromga amal qiladi.

Jamiyatda “maromiylik” loyihasiga asoslangan turmush tarzini ilgari surish — eng katta vazifamiz. Xalqimiz orasida kamtarlik va shukronalik madaniyatini mustahkamlash, to'y-ma'rakalarni milliy qadriyatlarimizga mos, ortiqcha dabdabadan xoli o'tkazishni odatga aylantirish oilalar farovonligi, millat ravnaqiga xizmat qiladi. Shuningdek, “ixchamlik bu — madaniyat” g'oyasini keng targ'ib etish maqsad qilib olingan. Bu boradagi ishlar tashkiliy, an'anaviy va raqamli targ'ibot yo'nalishlarida bajarilishi ko'zda tutilmoqda.

Xususan, fuqarolar orasida me'yorni saqlash, isrofgarchilikdan tiyilish, shukronalik va bag'rikenglik fazilatlarini targ'ib etishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi. “Iste'molchilik jamiyati” mavzusida siyosiy-ma'rifat soatlari, seminar-treninglar va ochiq muloqotlar tashkil etiladi. Isrofgarchilik va ijtimoiy-psixologik oqibatlar bo'yicha tahliliy materiallar, metodik qo'llanmalar tayyorlanadi. Media kompaniyalar, videoorliklar, maqolalar va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar orqali aholi orasida maromiylik madaniyati keng targ'ib qilinadi.

Mazkur tashabbus jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni mustahkamlash, ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish va milliy qadriyatlarimizga asoslangan me'yoriy hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zayniddin ESHONQULOV,
O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi
o'rinbosari:



— Jamiyatda ortiqcha isrofgarchilik, dabdababozlik, shuhratparastlik va me'yorni saqlamaslik kabi salbiy holatlar kuzatilayotgani bor gap. Oilaviy tadbirlar, to'y va marosimlarning haddan tashqari dabdabali o'tkazilishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazib, milliy qadriyatlarga zid kayfiyat shakllanishiga sabab bo'lyapti. Shu bois, mamlakatimizda oilalar ahil-inoqligini ta'minlash va ajrashishlarning oldini olish borasida jiddiy sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda oila qurilishidan to jamiyat hayotiga singishib ketguniga qadar qo'llab-quvvatlovchi tizim yaratilgan. Eng avvalo, nikohlanuvchi yoshlar ishtirokida FHDYO vakili, imom-xatib va otinoyini jalb etgan holda uchrashuvlar ham foydali bo'lmoqda.

Oilalar turmushini yaxshilash uchun ehtiyojmandlarga uy-joy berish yoki uy-joyini ta'mirlash, ishsizlarga ish topib berish, tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb qilish, yoshlar vaqtini unumli o'tkazish, muhtojlarga yordam berish kabilar yo'lga qo'yilgan. Bu yo'nalishda “Temir daftar”, “Yoshlar daftar” va “Ayollar daftar” orqali ko'mak berish tizimi joriy etilgan juda savobli ishlardandir.

Agar kelishmovchilik tufayli oila ajrashish yoqasiga kelib qolsa, yarashtiruv komissiyalari, imom-domlalar, otinoylar va ikki yildan buyon hoji ota-onalar bunday oilalarni isloh qilish uchun hayotiy tajribasi hamda bilimi va salohiyatini ishga solmoqda. Mana shuncha sa'y-harakatlar va tushuntirish ishlariga qaramay, arzimagan sabablar bilan ajrashishlar uchrayotgani xavotirli. 2025-yilning o'tgan 6 oyida yurtimizda 23,3 mingta ajrashish qayd etilgan tashvishli. O'yab ko'raylik, buning natijasida kamida 20 mingga yaqin farzand tirik yetimiga aylanadi, buning ortidan qanchadan-qancha muammolar yuzaga keladi.

Bitta ajrashish tufayli er-xotin tomondagi bir qancha kishilar orasi buziladi, farzandlar sarson bo'ladi. Natijada yuzlab odam orasiga adovat tushadi. Demak, atrofdagi nizoli oilalardan xabar topsak, beparvo bo'lmay, er-xotinning arasini isloh qilib, yarashitirsaq, ko'plab savob olamiz.

Keyingi paytlardagi ajrashish holati to'y arafasidagi ortiqcha sarf-xarajat, sep-siding'a va johzolar kabi moddiy jihatlarga ham bog'liq bo'lyapti. To'y'lardagi dabdaba va isrof natijasida qarzga botish yoki “Unday narsa qildi, bunday narsa qildi” degan vajlar bilan oilalar buzilayotgani katta musibat. Vaholanki, bir hadisi sharifda payg'ambarimiz alayhissalom “Eng barakali ayollar — xarajati (mahri) yengil bo'lganlardir”, dedilar. Demak, nikohning avvali mahri yengil bo'lsa, to'y xarajati ham ixcham bo'ladi.

Aslida, oddiy to'y nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy barqarorlik omili. Mahalla, diniy soha va jamoatchilikning hamjihatligi orqali isrofgarchilikni cheklash hamda milliy an'analarni asrash mumkin. Bugungi islohotlar ana shu qadimiy tarbiya va ma'naviy tajribaga suyangan holda amalga oshirilmoqda.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока”
gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146.
34685 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 09:55